

O'ZBEKISTONDA MSFO BO'YICHA IJARA OPERATSIYALARINI AKS ETTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Yulduz Panjiyevna Khalikulova

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0002-5542-5367

E-mail: y.xolikulova@tsue.uz

Annotatsiya

Maqolada O'zbekiston iqtisodiyotida xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MSFO) asosida ijara operatsiyalarining aks ettirilishi tahlil qilinadi. Ayniqsa, MSFO 16 – "Ijara" standarti talablari doirasida ijara shartnomalarining balansga kiritilishi bilan bog'liq yutuq va muammolar chuqur yoritildi. O'zbekiston korxonalarida bu standartni joriy etishdagi texnik, institutsional va moliyaviy cheklovlar ochib berildi. Maqolada ushbu yondashuvning moliyaviy shaffoflikka qo'shgan hissasi, hisob yuritishdagi murakkabliklar, milliy buxgalteriya tizimi bilan uyg'unlashuv holati ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: MSFO, MSFO 16, ijara, balans, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, O'zbekiston, shaffoflik, majburiyatlar, aktivlar.

Аннотация

В статье рассматривается порядок отражения арендных операций в экономике Узбекистана на основе Международных стандартов финансовой отчетности (МСФО). Особое внимание уделено требованиям стандарта МСФО 16 «Аренда» в части признания арендных договоров на балансе. Подробно анализируются достижения и проблемы, связанные с внедрением данного стандарта в практике узбекских предприятий, включая технические, институциональные и финансовые ограничения. Также изучено влияние МСФО 16 на финансовую прозрачность, сложность ведения учета и его согласованность с национальной бухгалтерской системой.

Ключевые слова: МСФО, МСФО 16, аренда, баланс, бухгалтерский учет, финансовая отчетность, Узбекистан, прозрачность, обязательства, активы.

Abstract

This article explores the application of International Financial Reporting Standards (IFRS) in accounting for lease transactions within Uzbekistan's economy. Special focus is given to IFRS 16 "Leases" and its requirement to recognize lease agreements on the balance sheet. The paper highlights both the benefits and challenges associated with implementing this standard in Uzbek enterprises, including technical, institutional, and financial constraints. It also discusses the contribution of IFRS 16 to

financial transparency, the complexities of accounting practices, and the compatibility with the national accounting system.

Keywords: IFRS, IFRS 16, lease, balance sheet, accounting, financial reporting, Uzbekistan, transparency, liabilities, assets.

KIRISH

Global moliyaviy axborot standartlarining milliy amaliyotga joriy etilishi, ayniqsa, investitsiyaviy muhitni yaxshilashda muhim vosita hisoblanadi. O'zbekistonda 2021-yildan boshlab yirik korxonalar va davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlarida MSFO asosida moliyaviy hisobot yuritish bosqichma-bosqich joriy qilinmoqda. Ayniqsa, ijara operatsiyalarini MSFO 16 asosida balansda aks ettirish orqali shaffoflik va investitsion jozibadorlik oshirilmoqda. Biroq bu jarayon o'ziga xos muammolarni yuzaga keltirmoqda: texnologik tayyorgarlikning pastligi, xodimlar malakasi va normativ-huquqiy bazaning to'liq shakllanmaganligi ushbu o'zgarishlarga to'siq bo'lmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mary Barth¹ (AQSh, 2008) – xalqaro buxgalteriya va moliya sohasidagi yetakchi tadqiqotchi sifatida, u MSFO, jumladan, ijara hisobini standartlashtirishni investorlar manfaatlarini himoya qilish yo'lida muhim qadam deb biladi. Uning fikricha: “MSFO 16 shartnoma asosidagi resurslar va majburiyatlarni moliyaviy hisobotlarda aks ettirish orqali kompaniyalar haqida ancha real manzara yaratadi. Bu, ayniqsa, moliyaviy riskni baholashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.” Beattie, Goodacre va Thomson² (Buyuk Britaniya, 2006) – o'z tadqiqotlarida balansdan tashqari ijara hisobining xavflarini ochib berib, MSFO 16 ni shaffoflikka erishish vositasi deb baholaydi: “Ijara shartnomalarining balansda aks ettirilishi orqali kreditorlar va tahlilchilar kompaniya moliyaviy barqarorligini haqqoniy tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.”

PricewaterhouseCoopers³ (PwC, 2019) amaliy yondashuvga ega yirik audit kompaniyasi sifatida, quyidagi xulosani ilgari suradi: “MSFO 16 kompaniyalarning kapital ijarasi va operatsion ijarani bir xil asosda aks ettirishini ta'minlaydi, bu esa hisob yuritishda yagona standartga asoslangan yondashuvni shakllantiradi.”

Mahalliy olimlardan M. Jo'rayev va S.Omanovlarning (2022)⁴ fikrlariga ko'ra MSFO 16 standarti O'zbekiston korxonalarida moliyaviy hisobotning sifatini oshirishda muhim o'rin tutadi. Ammo uni to'liq joriy etish uchun axborot tizimlarini modernizatsiya qilish zarur. G.Djumayeva (2021)⁵ esa o'z tadqiqotlarida “Ijara

¹Barth, M. E. (2008). Global financial reporting: Implications for US academics. *The Accounting Review*, 83(5), 1159-1179.

²Beattie, V., Goodacre, A., & Thomson, S. J. (2006). International lease-accounting reform and economic consequences: The views of UK users and preparers. *The International Journal of Accounting*, 41(1), 75-103.

³PwC, C. (2020). PwC. Global Annual Review.

⁴Jo'rayev, M. Q. (2022). Scientific methodical bases of the science of electric machines academia: An International Multidisciplinary Research Journal ISSN: 2249-7137 Vol. 12, Issue09, September 2022 SJIF 2022= 8.252 A peer reviewed journal <https://www.sjif.com>. Issue09, September.

⁵Axtamovna, D. G. (2024). XALQARO STANDARTLARGA O'TISH SHAROITIDA IJARA BILAN BO'LGAN IJARA OPERATSIYALARNI HISOB SIYOSATIDA AKS ETTIRILISHI. *Scientific Journal of Actuarial Finance and*

hisobining MSFO bo'yicha aks ettirilishi – bu faqatgina texnik yangilik emas, balki moliyaviy boshqaruv madaniyatining o'zgarishidir. Ammo korxonalarda MSFOga mos axborot tizimlari va malakali xodimlar yetarli emas.”- deb ta’kidalydi.

S.Egamberdiyeva (2023)¹ va B.Tursunovlar o'z ilmiy tadqiqotlarida ta’kidlashicha hozirda O'zbekiston korxonalarining 60 foizdan ortig'ida ijara operatsiyalarini to'g'ri tasniflashda muammolar mavjud. Shu sababli amaliyotda soddalashtirilgan modellarga ehtiyoj katta. Shuningdek, N.Qudbiyev (2024)² va B.Usmonovlar fikrlariga ko'ra balansda katta hajmdagi ijara aktivlarining paydo bo'lishi bizda dastlab investorlarda xavotir uyg'otdi, biroq bu haqiqiy moliyaviy holatni ochib berdi. MSFO 16 bu borada obyektivlikni ta'minlaydi.”

Umuman olganda, xorijiy olimlar MSFO 16 ni moliyaviy shaffoflik va global solishtiruvchanlikni ta'minlovchi vosita sifatida baholaydi. Ular texnik murakkabliklar emas, balki standartning strategik afzalliklariga urg'u beradi. Mahalliy olimlar esa bu standartni milliy amaliyotga moslashtirish jarayonidagi infratuzilmaviy, metodologik va kadrlar bilan bog'liq muammolarni ko'proq tilga oladi. Ularning fikricha, MSFO 16 ni joriy etish texnik tayyorgarlik va huquqiy moslashuvni talab qiladi.

METODOLOGIYA

MSFO bo'yicha ijara operatsiyalarini aks ettirishda MSFO 16 ni qo'llashdagi yondashuvlar, soddalashtirilgan metodlar solishtirish orqali uning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash. Shuningdek, MSFO 16 standarti joriy etilgan O'zbekiston korxonalarining real tajribalarini o'rganish orqali afzalliklar va kamchiliklarni aniqlash.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda MSFO bo'yicha ijara operatsiyalarini aks ettirishning afzalliklari va kamchiliklari quyidagi jadvalda o'z aksini topgan (1-jadval):

1-jadval

O'zbekistonda MSFO 16 standarti asosida ijara operatsiyalarini aks ettirishning afzalliklari va kamchiliklari³

Accounting, 4(11), 225-228.

¹ Rayimovna, E. S. (2023). IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA AKTIVLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH. Gospodarka i Innovacje., 301-312.

² Tohirovich, Q. N. (2024). IQTISODIY RIVOJLANISHNING HOZIRGI BOSQICHIDA KORXONALARDA IJARA MUNOSABATLARINI TAKOMILLASH MASALALARI. Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting, 4(09), 337-342.

³ Muallif ishlanmasi

MSFO bo'yicha ijara operatsiyalarini aks ettirishning afzalliklari va kamchiliklari	
1. Afzalliklar	2. Kamchiliklar
a) <i>Moliyaviy shaffoflik va ishonchlilik</i> : MSFO 16 ijara operatsiyalarini balansda aks ettirish orqali korxonalar haqidagi axborotning to'liqligini ta'minlaydi. Bu investorlar va kreditorlar uchun ishonchli moliyaviy ko'rsatkichlarni taqdim etadi.	a) <i>Buxgalteriya tizimining moslashmaganligi</i> : Ko'pgina korxonalarda milliy buxgalteriya hisob tizimi MSFO 16 talablari bilan to'liq uyg'unlashmagan. Ijara aktivlarini baholash, amortizatsiya va foiz hisoblash mexanizmlari avtomatlashtirilmagan.
b) <i>Davlat kompaniyalarining ochiqdigi</i> : Ayniqsa, davlat ishtirokidagi korxonalarning MSFO asosidagi hisobotlari ularning samaradorligini nazorat qilishga imkon beradi. Bu moliyaviy islohotlar doirasidagi muhim yo'nalishlardan biridir.	b) <i>Mutaxassislar malakasining yetishmasligi</i> : Amalga oshirilgan auditlar shuni ko'rsatadiki, ko'plab moliyaviy xodimlar MSFO 16 talablarini to'g'ri qo'llay olmayapti. Bu xatoliklar hisobotda noto'g'ri ko'rsatkichlarning paydo bo'lishiga olib keladi.
c) <i>Solishtiruvchanlik</i> : Milliy va xalqaro investorlar korxonalarni MSFO standartlari asosida solishtirish imkoniga ega bo'ladilar, bu esa sarmoya jalb etish imkoniyatlarini kengaytiradi.	c) <i>Moliyaviy ko'rsatkichlarga salbiy ta'sir</i> : Balansda aktiv va majburiyatlarning keskin ko'payishi kompaniya kapital tuzilmasida o'zgarishlarga olib keladi. Bu qarz ko'rsatkichlarining oshishi va reyting agentliklari baholarining pasayishiga sabab bo'lishi mumkin.

Yuqoridagi jadvalda keltirilganidek, bu standart asosida ijara operatsiyalarining balansda aks ettirilishi kompaniyalar haqida to'liq axborot taqdim etadi, bu esa investor va kreditorlar uchun muhim qaror qabul qilish asosiga aylanadi. Ayniqsa, davlat ishtirokidagi yirik korxonalarda bu standartni qo'llash ochiqlik va samaradorlikni oshiradi. Biroq bu islohotni amaliyotga to'liq joriy etishda bir qator muammolar mavjud. Xususan, korxonalar buxgalteriya tizimining MSFO 16 talablariga mos emasligi, hisoblash mexanizmlarining avtomatlashtirilmaganligi va bu borada mutaxassislar malakasining yetarli emasligi asosiy to'siq hisoblanadi. Bundan tashqari, ijara aktivlari va majburiyatlarining balansga kiritilishi ba'zida kompaniyaning moliyaviy ko'rsatkichlarini salbiy ko'rsatib, qarz ko'rsatkichlari o'sishiga va reyting pasayishiga olib kelishi mumkin.

Shu sababli, MSFO 16 standarti doirasidagi afzalliklarni to'liq ro'yobga chiqarish va kamchiliklarni yumshatish uchun davlat tomonidan qo'shimcha metodik ko'rsatmalar, texnologik infratuzilmani modernizatsiya qilish choralari va kadrlar salohiyatini oshirish dasturlarini ishlab chiqish zarur. Ayniqsa, kichik va o'rta korxonalar uchun soddalashtirilgan yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda MSFO 16 "Ijara" standartining joriy etilishi moliyaviy shaffoflik, ishonchlilik va xalqaro investitsion jozibadorlikni oshiruvchi muhim islohot hisoblanadi. Biroq bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zaruriy

texnologik infratuzilma, kadrlar salohiyati va normativ-huquqiy asoslar mustahkamlanishi lozim. Shuningdek, kichik va o'rta korxonalar uchun soddalashtirilgan yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarbdir. Strategik yondashuv orqali O'zbekiston MSFOni amaliyotda to'liq va samarali joriy eta oladi. Shuningdek, MSFO 16'ning joriy etilishi O'zbekiston moliyaviy hisobot tizimini zamonaviy xalqaro talablar darajasiga olib chiqish imkonini beradi. Biroq bu jarayon izchil, texnik, metodik va kadrlar tayyorgarligiga asoslangan yondashuvni talab qiladi. Hukumat, moliya institutlari, auditorlik kompaniyalari va korporativ sektor o'rtasida uzviy hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali bu jarayonni muvaffaqiyatli yakunlash mumkin. Uzoq muddatli istiqbolda bu islohot O'zbekistonning xalqaro kapital bozorlaridagi nufuzini oshirish va iqtisodiy raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Barth, M. E. (2008). Global financial reporting: Implications for US academics. *The Accounting Review*, 83(5), 1159–1179.
2. Beattie, V., Goodacre, A., & Thomson, S. J. (2006). International lease-accounting reform and economic consequences: The views of UK users and preparers. *The International Journal of Accounting*, 41(1), 75–103.
3. PwC. (2020). *Global Annual Review*.
4. Jo'rayev, M. Q. (2022). Scientific methodical bases of the science of electric machines. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(9), September. ISSN: 2249-7137.
5. Djumayeva, G. Axtamovna. (2024). Xalqaro standartlarga o'tish sharoitida ijara bilan bog'liq operatsiyalarni hisob siyosatida aks ettirilishi. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 4(11), 225–228.
6. Egamberdiyeva, S. Rayimovna. (2023). Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida xalqaro standartlar asosida aktivlar hisobini takomillashtirish. *Gospodarka i Innovacje*, 301–312.
7. Qudbiyev, N. Tohirovich. (2024). Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida korxonalarda ijara munosabatlarini takomillashtirish masalalari. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 4(9), 337–342.
8. Tursunov, B. (2024). Analysis of the industrial sector in ensuring the financial security of textile enterprises: Cluster methods. *Gospodarka i Innovacje*, 49, 374–381.
9. Usmonov, B. (2025). Kapital aktivlarini baholashda Modilyani-Miller modelining ahamiyati. *Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari*, 5(1), 178–183.
10. Burkhanov, A., & Tursunov, B. O. (2020). Main indicators of textile enterprises' financial security assessment. *Vlakna a Textil*, 27(3), 35–40.
11. Khalikulova, Y. (2025). Analysis of the role of leasing and rental transactions in the activities of enterprises and organizations and across regions. *Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari*, 5(1), 240–245.
12. Burkhanov, A. U., Tursunov, B., Uktamov, K., & Usmonov, B. (2022, December). Econometric analysis of factors affecting economic stability of chemical

industry enterprises in digital era: In case of Uzbekistan. In Proceedings of the 6th International Conference on Future Networks & Distributed Systems (pp. 484–490).

13. Xalikulova, Yu. (2023). Iqtisodiyotimizda transport-logistika xizmatlari tashkil etilishi va uning rivojlanishi. Yo‘nalishlar rivoji: raqamli iqtisodiyot sharoitida qulay biznes muhitini shakllantirish, 1(02), 122–126. <https://doi.org/10.47689/TSUE2022-pp122-126>

14. Usmonov, B. (2021). Ways of effective capital management of joint stock company. International Finance and Accounting, 2021(4), 5.

15. Qurbonazar o‘g‘li, O. S. (2025). Improving the analysis of joint-stock company profitability indicators. International Journal of Management and Economics Fundamental, 5(4), 45–50.

16. Omanov, S. (2021). Iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida ishlab chiqarish xarajatlari hisobining iqtisodiy mohiyati va asosiy jihatlari. Iqtisodiyot va ta’lim, (6), 72–78.